



**ADOLAT SOTSIAL-DEMOKRATIK PARTIYASI NOMZODLARINI
SAYLOVOLDI DASTURLARI BO`YICHA PARTIYA SAMARADORLIGINI
BAHOLASH.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6532275>

**Vohidjonova Nodiraxon Vohidjon qizi
Saidova Nozima Orif qizi**

*Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston
Milliy universiteti "Ijtimoiy fanlar" fakulteti,
Siyosatshunoslik yo`nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz siyosiy partiyalarning shakillanish tarixi, O`zbekiston Respublikasidagi partiyalaridan biri bo`lgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasining tarixiga to`xtalidik. Faoliyatini o`rgangan holda maqsadini yoritib berishga harakat qildik. Shu o`rinda 2016-yilgi Prezidentlik saylovi ga nomzod Narimon Umarov saylovoldi dasturi va 2021-yilgi O`zbekiston Respublikasi prezidentligiga nomzod Bahrom Abduhalimovning saylovoldi dasturi haqida ma`lumot beriladi.

Kalit so`zlar: ta`sis qurultoyi, ustav, saylovoldi dastur, nomzod, adolat, qonun ustuvorligi, saylov tushunchasi, siyosiy partiya, huquqiy asos, demokratiya, ta`sis qurultoyi, ustav, saylov, siyosiy tashkilot, Konstitutsiya, suverenitet, Adliya vazirligi, nomzod, ekologiya, adolat, qonun ustuvorligi, senat, fraksiya a`zolari.

O`zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi ["Adolat"SDP]- O`zbekistondagi siyosiy partiyalardan biri. Adolat SDPning faoliyatiga to`xtalishdan oldin partiya tushunchasi, uning tarixi va vazifalari haqida qisqacha ma`lumot bermoqchiman. Partiya so`zi lotinchadan olingan bo`lib "partio"- bo`laman, ajrataman degan ma`nolarni anglatadi. G`oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak bo`lgan shuningdek, muayyan ishni bajarish uchun ajratilgan kishilar guruhi. Siyosiy partiyalar faoliyati huquqiy asoslari va prinsiplari: siyosiy partiyalar ijtimoiy guruhi manfaatlarini va eng faol vakillarini birlashtiradigan siyosiy tashkilot hisoblanadi.

Huquqiy asoslari: siyosiy partiyalar o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, saylov to`g`risidagi qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq, shuningdek o`z ustuvorlari asosida amalga oshiradi.

Siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyat ko`rsatish prinsiplari: siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida,



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

hohish-irodasini erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi o'zini-o'zi boshqarish qonuniyligi va oshkoralik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi. Siyosiy partiyalarni tuzish va ularning faoliyati taqiqlanadi.

Konisitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi;

O'zbekiston Respublikasi suvereniteti yaxlitligi va xavfsizligiga fuqarolarning konisitutsiyaviy huquq va erkinligiga qarshi chiquvchi;

Urushni, ijtimoiy, mulkiy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi;

Xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi;

Milliy va diniy ruhdagi partiyalar faoliyati taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalar nima ekanligi va ularning vazifalari haqida ma'lumot berdim endi maqolaning asosiy qismi Adolat SDPning faoliyatiga to'xtalib o'taman. Adolat sotsial demokratik partiyasi 1995-yil 18-fevralda partiya ta'sis qurultoyida tuzilib, dasturi va ustavi qabul qilingan va shu kuni O'zbekiston Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tgan.

Partiyaning bosh maqsadi-Vatan mustaqilligini mustahkamlash, islohotlarning jadallashuviga, huquqiy-demokratik, adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish va pirovardida, O'zbekistonni jahonda rivojlangan mamlakatlar safidan mustahkam o'rin olishga munosib hissa qo'shish.

Partiyaning g'oyaviy negizi:sotsial demokratiyaning 3 asosiy prinsipi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy adolat tashkil etadi. Qonun ustuvorligini ta'minlovchi adolatli ijtimoiy munosabatlar o'rnatilgandagina odil jamiyat qurish mumkin bo'ladi. Adolat partiyasi ushbu yo'nalishdagi ishlarni bajarishni o'zining asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Partiya o'rtahol va kam ta'minlangan aholi tabaqalariga tayanadi hamda ularning siyosiy, ijtimoiy irodasini namoyon etishga intiladi.

Adolat sotsial-demokratik partiyasining o'z oldiga qo'ygan vazifalari:

- huquqiy demokratik davlat qurish;
- mamlakat mustaqilligini mustahkamlash;
- Vatanga sodiq xizmat qilish;
- adolatli fuqaroviy jamiyat qurish;
- siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy demokratiya talablariga hamda mamlakatimizda yashab turgan barcha millat va elatlarning orzu-umidlariga monand shart-sharoit yuzaga keltirishga hissa qo'shish.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi 2016-yilgi Prezidentlik sayloviga nomzod Narimon Umarov saylovoldi dasturi "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi maqsad va vazifalari asosida ishlab chiqilgan. Unda innovatsion faoliyatning me'yoriy-huquqiy bazasini



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

yanada takomillashtirish, innovatsiya va innovatsion infratuzilmalarning yagona vakolatli organini ta'sis etish, innovatsiya jamg'armasini tuzish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Dasturda ekologiya sohasini kompleks rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqish, tabiat ifloslanishining oldini olish, chang va zaharli moddalarni ko'p yutuvchi daraxtlar soni va turini ko'paytirish, shaharlar va sanoat korxonolari atrofida yashil zonalar barpo etish orqali atrof-muhit musaffoligini ta'minlashga qaratilgan aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi zarurligi qayd etilgan.

O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi tomonidan 2021-yilgi O'zbekiston Respublikasi prezidentligiga nomzod Bahrom Abduhalimovning saylovoldi dasturi o'nta asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olgan.

1. Adolatli jamiyat va adolatparvar davlat qurish

«Mansabdorlarning o'z mavqeidan foydalangan holda yer maydonlari va barcha tabiiy resurslarni taqsimlashiga mutlaqo chek qo'yamiz. Mamlakat boyligi: yeri, o'rmonlari, mineral resurslari va boshqa tabiiy resurslari mansabdorlarga emas, so'zsiz xalqqa tegishli bo'lishi kerak. Mamlakat poytaxtini kengaytirish va rivojlantirish tarafdorimiz», – deya ta'kidladi prezidentlikka nomzod.

2. Adolat va qonun ustuvorligi

Partiya adolatsiz jazo va jarimalarni qayta ko'rib chiqishni qayd etib, jarimalar xalqning real daromadiga mutanosib bo'lishini, shuningdek, ularning ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib belgilanishini ta'minlashini ta'kidladi. Ayrim jinoyat turlariga ma'naviy jazo choralari qo'llashni ilgari suradi.

3. Ijtimoiy adolatni qaror toptirish

4. Ta'lim sohasida adolat ustuvorligini ta'minlash

5. Ilm-fan – adolat va taraqqiyot omili

6. Aholi salomatligi ulkan boyluk, jamiyatning barqaror rivojlanishi garovi

«Adolat» SDP nomzodi «Aqlli tibbiyot» tizimini shakllantirish bo'yicha ta'sirchan qonunchilik mexanizmlarini ishlab chiqib, aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo'yicha «Milliy dastur» qabul qilishni ko'zda tutmoqda.

7. Ayol – muqaddas, oila – jamiyat asosi

Dasturga muvofiq, oila institutini mustahkamlash bo'yicha milliy indekslarni, shuningdek, tegishli xalqaro reytinglarda O'zbekiston ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqilishi, reproduktiv salomatlik va oilaning demografik rivojlanishini barqaror ta'minlash maqsadida, «Sog'lom oila – sog'lom jamiyat» konseptual g'oyasini amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

8. Yuqori ma'naviyat bilan adolat sari



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

«Har qanday davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi», – ta'qidladi prezidentlikka nomzod.

9. Samarali iqtisodiyot – taraqqiyot omili

10. Tinlichksevar, adolatli va progressiv tashqi siyosat

Xulosa:

Xulosa o'rnida avval ko'rib chiqilgan partiyaning shakillanish tarixi, faoliyati, maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bundan tashqari, partiya a'zolarining Prezidentlikka nomzod sifatida olib chiqqan saylovoldi dasturlarini inobatga olgan holda "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi boshqa partiyalar bilan sog'lom raqobatga kirishishga qodir deb ayta olamiz. Bu o'rinda partiya o'z a'zolarini jalb qilishga ham ulgurgan va quyidagi jadvalda siz bu bilan tanishishingiz mumkin. 2016-yildagi Prezidentlik saylovidagi nomzod sifatida ko'rsatilgan "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi a'zosining saylovoldi dasturi bilan 2021-yildagi partiyadan ko'rsatilgan nomzodning saylovoldi dasturini solishtirganda bir qator samarali jihatlar ko'zga tashlanadi. Shuni inobatga olsak, partiya kelgusidagi bo'lajak saylovlarda o'z ustida yanada qattiqroq ishlashi va 2024-yildagi Prezidentlik saylovida g'alaba qozonoshini kutamiz!

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasining Senat, Qonunchilik palatasi va Mahalliy kengashlardagi a'zolari

Senat	Tayinlangan senatorlar	2ta
	Saylangan senatorlar	2ta
Qonunchilik palatasi	Fraksiya a'zolari	22ta
Mahalliy kengashlar	Viloyat kengashi	1. Qoraqolpog'iston Respublikasi 68ta 2. Andijon viloyati 40ta 3. Buxoro viloyati 57ta 4. Jizzax viloyati 33ta 5. Navoiy viloyati 52ta 6. Namangan viloyati 40ta 7. Samarqand viloyati 93ta 8. Sirdaryo viloyati 55ta 9. Surxondaryo viloyati 69ta 10. Toshkent viloyati 72ta 11. Farg'ona viloyati 96ta 12. Xorazm viloyati 51ta 13. Qashqadaryo viloyati 69ta 14. Toshkent shahri 51ta

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

<https://adolat.uz/history>

<https://kun.uz/uz/37486396?q=%2Fuz%2F37486396>

<https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/27/adolat/>

<https://kun.uz/uz/123408?q=%2Fuz%2F123408>

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Adolat_sotsial-demokratik_partiyasi